

Xayriya aksiyalarimiz davom etadi

Institut Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti fakulteti Yoshlar Kengashi faollari boshlab bergan xayriya aksiyalari davomli bo'lmoqda. Xuddi shunday savobli ishlardan yana biri "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti yoshlar ittifoqi faollari tomonidan tashkil etildi. Fakultet rahabariyati ham ushbu tashabbusni qo'llab-quvvatlagan holda, kerakli yordamlarini berishdi.

Talabalar Toshkent shahar Olmazor tumanida joylashgan boquvchisini yo'qotgan, qarovga muhtoj qariyalar holidan xabar olish, ularning ko'nglini ko'tarish, ularni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yillik bayrami bilan tabriklash maqsadida fakultet miqyosida Aksiya o'tkazildi. Fakultet Yoshlar ittifoqi faollari tomonidan maxsus bayram dasturi tayyorlanib yig'ilganlar etiboriga havola etildi. Bayram sovg'alari va boshqa kerakli bo'lgan narsalar qariyalar uyiga topshirildi. Ushbu aksiya doirasida fakultetdagi barcha talabalar o'z hissasini qo'shishdi. Qo'ldan kelgancha yordam berishdi. Aksiyani tashkil etishda ko'maklashgan har bir talabaga katta rahmat aytamiz. Savobli ishingiz amalini bersin. Fakultet yoshlar ittifoqi aksiyalari davom etadi! Safimizga qo'shiling faol bo'ling.



Fakultet yoshlar yetakchisi Haytboy Iskandarov axboroti

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov